
TOSHLOQ TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATINING RASMIY MUNOSABATI

“Mahalla” gazetasining 5-sonida “Yo‘l va yog‘och ustunlarni ta‘mirlash kerak...” nomli maqola chop etildi. Unda Farg‘ona viloyati Toshloq tumanidagi “Zarkent” mahallasida 10 km. masofadagi ichki yo‘llarni asfaltlash, 200 dona yog‘och ustunlarni beton ustunga almashtirish, Asilobod ko‘chasiga tabiiy gaz tarmog‘i tortish, masalalari yuzasidan tuman hokimligiga, sektor rahbariga berilgan takliflar o‘z echimini kutayotgani ta‘kidlangan.

Tuman hokimligi hamda 2-sektor rahbariyati tomonidan maqolada berilgan muammolar yuzasidan o‘rganishlar olib borilmoqda. Bu bo‘yicha chora-tadbir belgilanib, amaliy ishlar bajariladi.

2024-02-01 14:17:43